

# TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ

—  
JOURNAL  
2022

№3

**Bosh muharrir:**

**Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

**Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.**

**Mas'ul kotiblar:**

**Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**  
**Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

**Tahririyat a'zolari:**

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

MUSTAQILLIK YILLARIDA MA'NAVIY MEROSGA BO'LGAN  
MUNOSABATNING O'ZGARISHI

*Vaxobov Ulug'bek,*

JDPI, "Falsafa, tarbiya va  
huquq ta'limi" kafedrası o'qituvchisi

*Muxammedov Mirjalol,*

JDPI, Magistratura bo'limi Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat  
asoslari) 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqillik va mustamlaka yillarida ma'naviy meros va qadriyatlarga bo'lgan e'tibor tahlil qilinadi. Ya'ni, ularning sho'rolar va sovetlar davrida oyoq-osti qilinishi, mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng boshqacha yondashuvning namoyon bo'lishi, ma'naviy meros qadriyatlarning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati haqida o'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, ma'naviy meros, madaniy meros, muqaddas qadajolar, qadimiy qo'lyozma, tarixiy yodgorlik, urf-odat, qadriyat.

**Annotation:** The article analyzes the emphasis on spiritual heritage and values in the years of independence and colonization. That is, their trampling in the era of the Soviets and the Soviets, the manifestation of a different approach after the acquisition of independence, the significance of spiritual heritage values in the upbringing of the younger generation, is considered.

**Keywords:** Spirituality, spiritual heritage, cultural heritage, sacred packaging, ancient artifact, historical monument, tradition, value.

Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda. Ayni vaqtda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati bu yo'nalishdagi ishlarni sifat

## **Тарих ва Жамият илмий журнали**

jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu borada nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida g'oyat noyob hisoblangan, YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan qo'lyozmalar fondiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, shuningdek, qadimiy yozma manbalar fondiga ega bo'lgan muassasalar faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarining katta qismi Samarqand (1607 ta), Qashqadaryo (1468 ta), Buxoro (829 ta), Toshkent (828 ta) viloyatlarida ro'yxatga olingan. Eng kam obyekt Sirdaryo viloyatida qayd etilgan bo'lib, ularning soni 78 tani tashkil qiladi.

Tarixiy haqiqatni tiklash davlat siyosati darajasida belgilandi. Bu hayotiy zarurat edi. Chunki o'z ozodligini, erkini qo'lga kiritgan xalq ko'p asrlar davomida bosib o'tgan tarixiy yo'lini aniq bilishi, buyuk ajdodlari merosidan to'la bahramand bo'lishi kerak edi. Bu millatimizning o'zligini anglab yetishi, istibdod davrida toptalgan g'ururini tiklashi, yuksaltirishi, mamlakatimizning kelajak yo'lini belgilab olishi uchun xizmat qilardi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mustaqillikning ilk yillarida tarixchi olimlar bilan uchrashuvda o'rta tashlagan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan g'oyaviy kontseptsiyasi asos bo'ldi.

Tariximizni haqqoniy yoritishda xalqimizning yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qadimiy shaharlarimizdagi yodgorliklar, obidalar, inshootlarni qayta qurish, ta'mirlash, asl holida bunyod etish kabi ishlarga alohida e'tibor berildi. Bu bejiz emasdi. Chunki bu madaniy boyliklar tariximizning asl manbalari, jonli guvohlari, ilmiy asoslari hisoblanadi. Ma'lumki, mamlakatimizda 7198 ta tarixiy yodgorliklar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 2357 tasini me'moriy obidalar, 3843 tasini arxeologik yodgorliklar, 998 tasini mahobatli tarixiy inshootlar tashkil qiladi. Bu raqamlar mamlakatimizni nafaqat Sharqda, balki butun dunyoda tarixiy madaniy yodgorliklarga boy o'lkalardan biri sifatida namoyon etadi. Shular orasida tarixiy me'moriy obidalar alohida o'rin tutadi.[2]

## Тарих ва Жамият илмий журнали

Yurtimiz mustaqillikka erishishdan oldin bu me'moriy yodgorliklar, obidalarining aksariyati buzilgan, ta'mir qilinmagan, yarim vayrona holatlarda edi. Prezidentimiz, birinchi navbatda, ana shunday inshootlarni, yodgorliklarni qayta qurish, ta'mirlash, asl tarixiy asosda bunyod etishga e'tiborni qaratdi.

Yurtimizda mustaqillik yillarida madaniy meros ob'ektlarini qayta qurish, ta'mirlash va obodonlashtirish bilan birgalikda o'tmishda yashab o'tgan ulug' allomalar, mashhur ijodkorlar, buyuk siymolar merosini o'rganish, nomlarini ulug'lash, xotiralarini abadiylashtirish borasida ham ulkan ishlar qilindi. Ulug' mutafakkir, matematika va algebra fanlari asoschisi Muhammad Muso al-Xorazmiy, buyuk astronom, tarixda nomi qayta tiklangan alloma Ahmad Farg'oniy, tabobat ilmining sultoni, tib ilmi qonunlarini yaratgan Abu Ali ibn Sino, o'rta asrlar astronomiya ilmining ulug' namoyandasi Mirzo Ulug'bek, mumtoz she'riyatning o'lmas dahosi Alisher Navoiy haykallarining o'rnatilishi mana shu davrda kechdi. Atoqli mutakallim Abu Mansur Moturudiy, buyuk faqih, "Hidoya" asari muallifi Burxoniddin Marg'inoniy, ulug' muhaddis Imom al-Buxoriy, Xojagon tariqatining mashhur namoyandasi Abulholiq o'ijduvoniy, naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshbandiy, mutasavvuf alloma, ulug' shoir Pahlavon Mahmud, xalqqa ko'p yaxshiliklar qilgan, Hazrati Imom nomi bilan mashhur bo'lgan Shayx Qaffol Shoshiy maqbaralarining va muqaddas qadamjolarining tiklanishi, qayta qurilishi, obod qilinishi istiqloлга erishganimiz sababli yuz berdi.

Tariximizning o'lmas siymolari, xalqimiz va Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Sharqda qudratli va adolatli davlat yaratgan Amir Temur, ham shoir, ham davlat arbobi sifatida tanilgan Zahiriddin Muhammad Bobur majmualari, haykallari yurtimiz mustaqilligining sharofati tufayli tiklandi. Mana shunday buyuk mutafakkirlar, ulug' siymolarning xalqaro doirada bir necha yuz va ming yillik to'ylari o'tkazildi. O'zbekiston dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk daholar yurti ekanligi e'tirof etildi.

Umuman, respublikamizda mustaqillik yillarida mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar qayta qurilib, ta'mirdan chiqarildi. Bu ishlar uchun bir necha yuz milliard so'mlik mablag' sarflandi. Tarixiy merosimiz tiklandi, qadriyatlarimiz qaror

## **Тарих ва Жамият илмий журнали**

topdi. Yurtimizda amalga oshirilgan ulug'vor ishlar xalqaro miqyosda ham tan olindi. Mamlakatimizdagi to'rtta qadimiy shahar — Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan Butun jahon moddiy madaniyat namunalariga ega bo'lgan tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritildi.

2007-yilda Toshkent shahri ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti — AYSESKO tomonidan “Islom madaniyati poytaxti”, deb e'lon qilindi. Shuningdek, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti va YuNESKO xalqaro tashkilotining qarorlariga ko'ra, Samarqand shahrining 2750, Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700, Buxoro, Xiva, Termiz shaharlarining 2500, Toshkent va Marg'ilon shaharlarining 2200, 2000 yillik to'ylari dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikda nishonlandi. Bularning hammasi istiqlol yillarida O'zbekistonning tarixini boyitish, yangilash bilan birgalikda uning dunyoviy nufuzini oshirdi, xalqaro darajada mavqeini yuksaltirdi.

### **Adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat-yengilma kuch”-T.,2008
2. Davlat statistika qo'mitasi